ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

IÇKI IŞLAR ORGANLARI FAOLIYATINI ILMIY TA'MINLAŞ: EVOLYUTSIYA, TRANSFORMATSIYA, ISTIQBOLLAR

Içki işlar organlari xodimlari kunining 35 yilligiga bağişlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari tõplami



Toşkent - 2026

Özbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti kengaşining 2026 yil _____ ____-son yiğilişida muhokama qilingan hamda naşrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir

Özbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boşliğining örinbosari, yuridik fanlar böyiça falsafa doktori (PhD), professor R.O.Nigmatov.

Taqrizçilar:

Boş ilmiy xodim, falsafa doktori (PhD), dotsent Ş.Ş. Hasanov
Boş ilmiy xodim, falsafa doktori (PhD) S.A.Isayev

Tahrir hay'ati:

Ş.Azim, B.A.Yarov, S.E.Ernazarov, D.O.Baratova, Ş.Ş.Şavkatov, B.F.Abdusalomov, D.A.Ubaydullayeva.

Naşrga tayyorlovçi:

Ş.Ş.Şavkatov

"Içki işlar organlari faoliyatini ilmiy ta'minlaş: evolyutsiya, transformatsiya, istiqbollar": Respublika sirtqi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari töplami (2026-yil 22-oktyabr) / – T.: Özbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026. – 416b.

Mazkur töplamda içki işlar organlari faoliyatini ilmiy ta'minlaşning nazariy va amaliy masalalari, tizimning tarixiy evolyutsiyasi, sönggi yillarda amalga oşirilgan islohotlar hamda ularning natijalari yoritilgan. Unda huquqbuzarliklarning oldini oliş, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyati samaradorligini oşiriş, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarşi kuraşiş, içki işlar organlari faoliyatini raqamlaştiriş va huquqiy statistika ma'lumotlarini tahlil qiliş masalalari tahlil qilingan.

Şuningdek, töplamda içki işlar organlari uçun malakali kadrlar tayyorlaş, amaliyot xodimlarining ehtiyojlariga asoslangan malaka oşiriş, kadrlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy işlarni taşkil etiş hamda tizimning tarixiy tajribasidan bugungi islohotlar uçun saboqlar çiqariş masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mavjud muammolarni bartaraf etiş, ilğor xorijiy tajribani örganiş va milliy amaliyotga joriy etiş yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Töplam huquqni muhofaza qiluvçi organlar xodimlari, oliy ta'lim muassasalarining professor-öqituvçilari, olimlar, tadqiqotçilar, mustaqil izlanuvçilar, magistrantlar va kursantlar, şuningdek, kriminologiya, huquqbuzarliklar profilaktikasi va içki işlar organlari faoliyatini taşkil etiş masalalari bilan şuğullanuvçi mutaxassislar uçun möljallangan.

© Özbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026-y.

MUNDARIJA

Kiriş sözi 3

1. **Нигматов Руфтулло Олимджонович** — "Становление криминологии как самостоятельной науки в Великобритании: взаимодействие исследовательских направлений" 5
2. **Ollamov Yaraş Yöldoşoviç** — "Aholining içki işlar organlari va ularning xodimlariga bölgan işonçi tuşunçasi" 20
3. **Buranova Raziya Yermaxamed qizi** — "Özbekiston Respublikasida jinoyatçilikni kriminologik prognoz qiliş: muammolar va takomillaştiriş istiqbollari" 36
4. **Xidirov Furqat Şukurullayeviç** — "Amaliyot xodimlarining kasbiy ehtiyojlariga asoslangan malaka oşiriş dasturlarini takomillaştiriş" 44
5. **Mirzakulov Akram Gafurjanoviç** — "Içki işlar organlari xodimlarining jismoniy faolligi va funksional holatini raqamli tahlil qiliş orqali xizmat samaradorligini oşiriş" 51
6. **Djumanov Şuxrat Toşmatoviç** — "Çorva mollarini öğirlaş jinoyatlarini tergov qilişdagi muammolar va ularning yeçimlari" 59
7. **Umirzakov Begzod Ataboeviç** — "Korrupsiya genezisi va unga qarşi kuraşiş mexanizmlarining tarixiy evolyusiyasi: milliy tajriba va zamonaviy yondaşuvlar" 67
8. **Tadjiyev Azamat Alibayeviç** — "Jinoyat işlari böyiça isbotlaş jarayonida tergovçining maxsus bilimlardan foydalaniş xususiyatlari" 81
9. **Sobirov Furqat Baxromboy öğli** — "Içki işlar organlari ekspert-kriminalistika bölinmalari uçun kadrlar tayyorlaş jarayonida amalga oşirilayotgan islohotlar" 87
10. **Badalboyev Feruz Yusufoviç** — "Elektron tölov vositasi, bank hisobvarağı yoki kripto-hamyonni yoxud ularni boşqariş imkonini beruvçi ma'lumotlarni boşqa şaxsga beriş va ulardan foydalanişning jinoyat-huquqiy jihatlari" 92
11. **Baratova Dilnoza Odiljon qizi** — "Mintaqaviy jinoyatçilikning latent şakllari, ularni aniqlaş muammolari va kriminologik jihatlari" 99
12. **Asqarov Mirzoxid Mirjalol öğli** — "Internetda bir şaxsga qarşi muvofiqlaştirilgan ommaviy ruhiy tazyiqning kriminologik xususiyatlari va oldini oliş masalalari" .108
13. **Isayev Sardor Alişeroviç** — "Huquqni muhofaza qiluvçi faoliyat samaradorligini oşirişda fan va ta'limning roli: integratsion yondaşuv" 113
14. **Bobojonov Xikmat Şavkatoviç** — "Içki işlar organlari xodimlarini uçuvçisiz uçadigan apparatlarni boşqarişga örgatişda kompyuter texnologiyalari va "dron poligonlari"dan foydalanişning ahamiyati" 125
15. **Yusupov Djasur Xikmatoviç** — "Xorijiy mamlakatlar tajribasida kiberjinoyatlarga qarşi kuraşiş: taşkiliy tuzilmalar, evolyutsiya va institutsional asoslar" 134
16. **Boltayev Murod Mamarajaboviç** — "Oila-turmuş doirasidagi jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan şart-şaroitlarning kriminologik tahlili" 149
17. **Xudoyqulov Abdujalil Abduxaliloviç** — "Huquqbuzarliklarning oldini oliş samaradorligini oşiriş: muammolar va yeçimlar" 158
18. **Rayimov Hakim Nayimoviç** — "Yöl-transport hodisalariga oid ekspertizalarni tayinlaş va ötkazilişdagi muammolar" 163

HUQUQNI MUHOFAZA QILUVÇI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OŞIRIŞDA FAN VA TA'LIMNING ROLI: INTEGRATSION YONDAŞUV

Isayev Sardor Alişeroviç
Özbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Boş ilmiy xodimi, yuridik fanlar bōyiça falsafa doktori (PhD), podpolkovnik.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Özbekiston Respublikasida fan, ta'lim va huquqni muhofaza qiluvçi faoliyatning özaro boğliqligi hamda ularning jinoyatçilikning oldini oliş va jamoat xavfsizligini ta'minlaşdagi örni tahlil qilinadi. Zamonaviy jinoyatçilikning transformatsiyasi, raqamlaştiriş jarayonlari va yangi tahdidlarning yuzaga kelişi şaroitida huquqni muhofaza qiluvçi faoliyat samaradorligini oşirişda ilmiy bilim, zamonaviy ta'lim va amaliyotning uzviy integratsiyasi zarurligi asoslanadi. Fan jinoyatçilikning sabablari va şart-şaroitlarini aniqlaş, kriminogen jarayonlarni prognozlaş hamda amaliy yeçimlarni işlab çiqiş manbai sifatida, ta'lim esa uşbu bilimlarni kasbiy kompetensiyalarga aylantiruvçi mexanizm sifatida körib çiqiladi. Şu asosda "Fan – ta'lim – huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot – texnologiyalar – qayta aloqa" modeli taklif etiladi. Mazkur model ilmiy tadqiqot natijalarini ta'lim va amaliyotga joriy etiş, amaliyotda aniqlangan muammolarni esa ilmiy tadqiqotlar uçun yangi yönaliş sifatida şakllantiriş imkonini beradi. Tadqiqot natijasida fan, ta'lim va huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot örtasidagi hamkorlikni epizodik tadbirlardan doimiy va natijador tizimga aylantiriş böyiça takliflar işlab çiqilgan.*

Kalit sözlar: *fan, ta'lim, huquqni muhofaza qiluvçi faoliyat, kriminologiya, jamoat xavfsizligi, jinoyatçilikning oldini oliş, ilmiy-amaliy hamkorlik, kadrlar tayyorlaş, innovatsiyalar, raqamlaştiriş.*

Аннотация. *В статье рассматривается взаимодействие науки, образования и правоохранительных органов в Узбекистане. Обосновывается необходимость их системного сотрудничества в условиях цифровизации, изменения преступности и появления новых угроз. Предлагается модель*

«наука — образование — правоохранительная практика», обеспечивающая внедрение научных разработок в обучение и практику, а практических проблем — в научные исследования. Делается вывод о необходимости постоянной системы такого взаимодействия для эффективного предупреждения преступности и обеспечения общественной безопасности.

***Ключевые слова**: наука, образование, правоохранительная деятельность, криминология, общественная безопасность, предупреждение преступности, научно-практическое сотрудничество, подготовка кадров, инновации.*

***Abstract**. The article examines the interaction between science, education and law enforcement agencies in Uzbekistan. It substantiates the need for systematic cooperation in the context of digitalization, changes in crime and the emergence of new threats. The «science — education — law enforcement practice» model is proposed to facilitate the implementation of scientific developments in education and practice, while practical problems serve as a basis for scientific research. The article concludes that a permanent system of such cooperation is necessary to improve crime prevention and ensure public safety.*

***Keywords**: science, education, law enforcement activities, criminology, public safety, crime prevention, scientific and practical cooperation, personnel training, innovations.*

Kiriş. Davlat va jamiyat rivojlanişining zamonaviy bosqiçi ijtimoiy jarayonlarning murakkablaşuvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning raqamlaştirilişi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanişi hamda jinoyatçilikning yangi şakl va usullar bilan transformatsiyalanişi bilan tavsiflanadi. An'anaviy jinoyatçilik şakllari bilan bir qatorda kiberjinoyatçilik, raqamli moliyaviy vositalardan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasining yangi şakllari, firibgarlik

buzg'unçi mazmundagi axborotlarni tarqatiş hamda boşqa zamonaviy tahdidlar kengayib bormoqda.

Mazkur jarayonlar huquqni muhofaza qiluvçi organlar oldiga jinoyatçilikka qarşi kurəşişning mavjud usullarini qayta körib çiqiş, yangi yondaşuvlarni işlab çiqiş va amaliyotga joriy etiş vazifasini qöymoqda. Bunday şaroitda huquqni muhofaza qiluvçi faoliyat samaradorligi nafaqat tegişli organlarning taşkiliy, moddiy-texnik va kadrlar salohiyatiga, balki davlatning **yangi bilimlarni yaratiş, ularni tizimli ravişda uzatiş, amaliyotda qöllaş va natijalarini baholaş qobiliyatiga** ham bevosita boğliqdir.

Şu nuqtayi nazardan, fan va ta'limni huquqni muhofaza qiluvçi faoliyatdan alohida va mustaqil yönaliş sifatida emas, balki uning **ilmiy-intellektual va kadrlar ta'minotining asosiy tarkibiy qismlari** sifatida körib çiqiş maqsadga muvofiq.

Fan jinoyatçilikning holati, tuzilişi va dinamikasini ilmiy asosda örganiş, uning sabab va şart-şaroitlarini aniqlaş, rivojlaniş tendensiyalarini prognozlaş hamda jinoyatçilikning oldini oliş böyiça amaliy tavsiyalar işlab çiqişga xizmat qiladi. Ta'lim esa mazkur ilmiy bilimlarni tizimlaştirib, ularni bölajak va amaldagi huquqni muhofaza qiluvçi organlar xodimlarining kasbiy kompetensiyalariga aylantirişni ta'minlaydi. Huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot esa ilmiy işlanmalarni sinovdan ötkaziş, ularning samaradorligini baholaş va yangi ilmiy muammolarni şakllantiriş uçun muhim muhit hisoblanadi.

Demak, **fan – ta'lim – huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot** örtasidagi özaro ta'sir bir tomonlama emas, balki uzluksiz va qayta aloqaga asoslangan jarayon bölişi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini fan, ta'lim va huquqni muhofaza qiluvçi faoliyatning özaro boğliqligini tizimli ravişda tahlil qiliş imkonini beruvçi umumilmiy va maxsus ilmiy yondaşuvlar taşkil etadi.

Tizimli yondaşuv asosida fan, ta'lim va huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot özaro boğliq va bir-birini töldiruvçi elementlardan iborat yagona tizim sifatida körib

çiqildi. Tahliliy yondaşuv yordamida zamonaviy jinoyatçilikning özgarişi hamda unga qarşi kuraşiş faoliyatiga qöyilayotgan yangi talablar örganildi.

Şuningdek, qiyosiy-huquqiy, strukturaviy-funksional va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilib, ilmiy tadqiqot natijalarini ta'lim va huquqni muhofaza qiluvçi amaliyotga joriy etiş mexanizmlari baholandi.

Özbekiston Respublikasi uçun mazkur masala alohida dolzarblik kasb etadi. Sönggi yillarda davlat siyosatida fan, innovatsiyalar va ta'limning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanişidagi rolini oşirişga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Xususan, **2030-yilgaça fanni rivojlantiriş konsepsiyasi** [1] ilmiy faoliyat samaradorligini oşiriş, ilmiy-innovatsion infratuzilmani rivojlantiriş, yuqori malakali kadrlar tayyorlaş hamda ilmiy tadqiqotlarni iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning dolzarb ehtiyojlariga yönaltirişni nazarda tutadi.

Şuningdek, **2030-yilgaça oliy ta'lim tizimini rivojlantiriş konsepsiyasi** [2] ta'limni amaliy könikmalar bilan yanada uzviy boğlaş, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantiriş, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etiş hamda raqobatbardoş mutaxassislar tayyorlaşga qaratilgan.

Mazkur konseptual yondaşuvlar huquqni muhofaza qiluvçi faoliyat sohasida ilmiy bilim va ta'lim salohiyatidan samarali foydalaniş uçun zarur institutsional asosni şakllantiradi.

Mavzu böyiça adabiyotlar tahlili. Fan va ta'limning davlat va jamiyat rivojlanişidagi strategik ahamiyatidan kelib çiqib, mazkur yondaşuvni huquq-tartibotni ta'minlaş va jinoyatçilikka qarşi kuraşiş sohasiga tatbiq etiş obyektiv zaruratga aylanmoqda.

An'anaviy yondaşuvga köra, huquqni muhofaza qiluvçi faoliyat, avvalo, amaldagi qonunçilik, xodimlarning kasbiy tajribasi hamda taşkiliy-boşqaruv mexanizmlariga asoslanadi. Biroq jinoyatçilikning zamonaviy şakllari, uning tezkor transformatsiyasi va texnologik imkoniyatlardan foydalaniş darajasining oşişi mazkur yondaşuvlarni **ilmiy asoslangan tahlil, prognozlaş, xavflarni baholaş va jinoyatçilikning oldini oliş mexanizmlari** bilan töldirişni talab etmoqda.

Ilmiy bilimlardan foydalaniş nafaqat sodir etilgan jinoyatlarni qayd etiş va tahlil qiliş, balki jinoyatçilikning sabab va şart-şaroitlarini aniqlaş, xavf guruhlarini belgilaş, kriminogen vaziyatdagi özgarişlarni prognozlaş hamda amalga oşirilayotgan profilaktik çora-tadbirlarning samaradorligini baholaş imkonini beradi.

Şu jihatdan zamonaviy fan huquqni muhofaza qiliş tizimiga nisbatan quyidagi asosiy funksiyalarni bajarişi lozim:

diagnostik funksiya – jinoyatçilikning sabab va şart-şaroitlarini, uning tarkibi, darajasi va dinamikasini aniqlaş;

prognozlaş funksiyasi – kriminogen vaziyatning ehtimoliy rivojlaniş yönalişlarini aniqlaş va yangi xavflarni oldindan baholaş;

amaliy funksiya – jinoyatçilikning oldini oliş va unga qarşi kurəşişning ilmiy asoslangan mexanizmlarini işlab çiqiş;

baholaş funksiyasi – huquqni muhofaza qiluvçi va profilaktik çora-tadbirlarning natijadorligini aniqlaş hamda ularni takomillaştiriş böyiça takliflar işlab çiqiş.

Şunday qilib, jinoyatçilikni statistik qayd etiş va tavsiflaşdan uning **ilmiy diagnostikasi, prognozlaş va amaliy boşqaruviga ötiş** zamonaviy kriminologiyaning muhim yönalişlaridan biridir.

Mazkur nuqtayi nazardan, **2024-yilda Özbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining taşkil etilişi** muhim institutsional qadam böldi. Institut zimmasiga kriminogen vaziyatni çuqur örganiş, jinoyatçilikni tahlil qiliş va prognozlaş, uning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, huquqiy va boşqa omillarini aniqlaş, şuningdek, qonunçilik va huquqni qöllaş amaliyotini takomillaştiriş böyiça ilmiy asoslangan takliflar işlab çiqiş vazifalari yuklatilgan.

Mazkur faoliyatda **«ğoyadan amaliyotgaça»** [3] tamoyili alohida ahamiyatga ega. Uşbu yondaşuv ilmiy tadqiqot natijalarini nazariy darajada qoldirmasdan, ularni jamoat xavfsizligini ta'minlaş, jinoyatçilikning oldini oliş va huquqni muhofaza

qiluvçi faoliyat samaradorligini oşirişga qaratilgan amaliy yeçimlarga aylantirişni nazarda tutadi.

Fan, ta'lim va huquqni muhofaza qiluvçi amaliyotning özaro boğliqligi. Agar fan yangi bilimlarni yaratsa, ta'lim uşbu bilimlarni tizimli ravişda uzatiş va ularni kasbiy kompetensiyalarga aylantirişni ta'minlaydi. Huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot esa mazkur bilim va kompetensiyalarning real şaroitda qöllanilişini ta'minlaydi.

Şu sababli zamonaviy huquqni muhofaza qiluvçi organ xodimining professionalligi faqat qonunçilikni biliş bilan belgilanmaydi. U murakkab ijtimoiy jarayonlarni tahlil qiliş, kriminogen xavflarni baholaş, zamonaviy texnologiyalardan foydalaniş, ilmiy ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qiliş va turli institutlar bilan samarali hamkorlik qiliş qobiliyatiga ham ega bölişi lozim.

Zamonaviy huquqni muhofaza qiluvçi organ xodimi quyidagi asosiy kompetensiyalarga ega bölişi zarur:

yuridik bilimlar;

kriminologik tafakkur;

tahliliy könikmalar;

raqamli savodxonlik;

axborot va ma'lumotlar bilan işlaş könikmalari;

zamonaviy texnologiyalardan foydalaniş qobiliyati;

kommunikativ kompetensiyalar;

prognozlaş va xavflarni baholaş könikmalari.

Şu nuqtayi nazardan, huquqni muhofaza qiluvçi organlar tizimidagi ta'lim muassasalari kadrlar tayyorlaş mazmunini jinoyatçilikning yangi şakl va usullari, texnologik rivojlaniş hamda jamiyatdagi ijtimoiy özgarişlardan kelib çiqqan holda muntazam ravişda yangilab borişi lozim.

Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi Akademiyasi, Huquqni muhofaza qiliş akademiyasi hamda Jamoat xavfsizligi universiteti faoliyatida ta'lim jarayoni bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot faoliyati, oliy ta'limdan keyingi ta'lim va ta'limni

raqamlaştirişga yönaltirilgan mexanizmlarning mavjudligi fan va ta'lim integratsiyasining muhim institutsional asosini taşkil etadi.

Bunda ta'lim jarayonining vazifasi faqat şakllangan bilimlarni uzatiş bilan çeklanmasligi kerak. Ta'lim muhiti ilmiy natijalarni muhokama qiliş, ularni amaliy vaziyatlarda sinab köriş va kasbiy könikmalarga aylantiriş imkonini beradigan makonga aylanişi zarur.

Ayniqsa, ta'lim oluvçilarni ilmiy-amaliy tadqiqotlarga jalb etiş muhimdir. Masalan, Içki işlar vazirligi Akademiyasida ilmiy tögaraklar va kriminalistik ekspertiza yönalişidagi ixtisoslaştirilgan laboratoriyalarning faoliyat yuritişi bölajak mutaxassislarni ilmiy izlanişlar bilan amaliy tayyorgarlikni uyğunlaştirişga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot va huquqni muhofaza qiluvçi amaliyotning özaro aloqasi. Fan va amaliyot örtasidagi hamkorlik bir tomonlama xarakterga ega bölişi mumkin emas. Ilmiy tadqiqotlar öz natijalarini huquqni muhofaza qiluvçi organlarga yetkazişi bilan birga, huquqni muhofaza qiluvçi amaliyotning özi ham ilmiy tadqiqotlar uçun **ijtimoiy buyurtmani şakllantirişi** lozim.

Huquqni muhofaza qiluvçi organlar kundalik faoliyatida mavjud metodikalar yordamida töliq va samarali hal etiş qiyin bölgan muammolarga duç keladi. Mazkur muammolar ilmiy tahlil uçun alohida tadqiqot obyektiga aylanişi kerak.

Şu asosda quyidagi qayta aloqa mexanizmini şakllantiriş maqsadga muvofiq:

amaliy muammo → ilmiy tadqiqot → ilmiy yeçim → amaliy sinov → samaradorlikni baholaş → joriy etiş → takomillaştiriş.

Özbekistonda kriminologik tadqiqotlarni taşkil etişning zamonaviy mexanizmlari ham aynan uşbu yondaşuvni rivojlantiriş uçun imkoniyat yaratmoqda. 2025-yilda Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan Oliy attestatsiya komissiyasi bilan hamkorlikda içki işlar organlari faoliyatiga bağişlangan ilmiy işlar tahlil qilingan. Şu bilan birga, tadqiqotlarni viloyat, tuman, şahar va mahalla darajasida kuçaytiriş zarurati aniqlangan.

Bu yondaşuv kriminologik tadqiqotlarning obyektini kengaytiriş zarurligini körsatadi. Ya'ni tadqiqot obyekti faqat mamlakat miqyosidagi jinoyatçilik emas, balki muayyan hududdagi **aniq kriminogen vaziyat, uning sabablari, şart-şaroitlari va rivojlaniş tendensiyalari** ham bölişi lozim.

Demak, huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot ilmiy işlanmalarni iste'mol qiluvçi subyekt bölibgina qolmasdan, ilmiy muammolarni şakllantirişning muhim manbalaridan biri sifatida ham namoyon bölişi kerak.

Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasining zamonaviy modeli. Ilmiy va ta'lim muassasalari rivojlanib borayotganiga qaramay, ilmiy bilim bilan amaliy faoliyat örtasidagi tafovutni bartaraf etiş dolzarb masalalardan biri bölib qolmoqda.

Hamkorlikning an'anaviy şakllariga ilmiy konferensiyalar, davra suhbatlari, seminarlar, qöşma ilmiy naşrlar, memorandumlar, metodik tavsiyalar va ilmiy tadqiqotlarni kiritiş mumkin.

Biroq bunday tadbirlarning mavjudligi hamkorlikning amaliy natijadorligini öz-özidan ta'minlamaydi. Ilmiy tadqiqot naşr bilan yakunlanişi, huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot esa avvalgi usullardan foydalanişda davom etişi mumkin. Xuddi şuningdek, ta'lim dasturida zamonaviy nazariy qoidalar mavjud bölsa-da, ular zarur amaliy könikmalar bilan mustahkamlanmasligi mumkin.

Şu sababli fan, ta'lim va huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot örtasidagi hamkorlikning asosiy mezoni ötkazilgan tadbirlar soni emas, balki **ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etiliş darajasi va ularning jamoat xavfsizligi hamda huquq-tartibot holatiga real ta'siri** bölişi kerak.

Mazkur yondaşuv asosida Özbekiston Respublikasida quyidagi yagona modelni şakllantiriş maqsadga muvofiq: **fan → ta'lim → huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot → texnologiyalar → qayta aloqa.**

Modelning birinçi bosqiçida **fan** muayyan jinoyatçilik muammosini aniqlaydi, ilmiy tadqiqot ötkazadi, uning sabab va şart-şaroitlarini belgilaydi hamda ilmiy asoslangan yeçim işlab çiqadi.

Ikkinçi bosqiçda **ta'lim** tadqiqot natijalarini öquv dasturlari, maxsus kurslar, treninglar, metodik materiallar va amaliy maşğulotlarga integratsiya qiladi.

Uçinçi bosqiçda **huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot** işlab çiqilgan mexanizmlarni muayyan hudud va real faoliyat şaroitida sinovdan ötkazadi.

Törtinçi bosqiçda **texnologiyalar** ilmiy yeçimlarni keng miqyosda joriy etiş, raqamlaştiriş, monitoring qiliş va natijalarni baholaş imkonini beradi.

Beşinçi bosqiçda **qayta aloqa** mexanizmi orqali amaliyotda olingan natijalar ilmiy va ta'lim tizimiga qaytariladi. Ular asosida ilmiy metodikalar, tadqiqot yönalişlari va ta'lim dasturlariga tegişli özgartirişlar kiritiladi.

Natijada uzluksiz sikl şakllanadi: *muammo → tadqiqot → ta'lim → joriy etiş → texnologik ta'minot → baholaş → takomillaştiriş.*

Mazkur mexanizm epizodik hamkorlikdan **doimiy, institutsional va natijaga yönaltirilgan hamkorlik tizimiga** ötiş imkonini beradi.

Hamkorlikning ustuvor yönalişlari. Özbekiston Respublikasida fan, ta'lim va huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot integratsiyasini yanada rivojlantiriş uçun quyidagi yönalişlarni ustuvor deb hisoblaş mumkin:

birinçidan, ilmiy yeçimni talab qiladigan dolzarb huquqni muhofaza qiluvçi muammolarning yagona röyxatini şakllantiriş;

ikkinçidan, Kriminologiya tadqiqot instituti, Içki işlar vazirligi Akademiyasi, Huquqni muhofaza qiliş akademiyasi, yuridik oliy ta'lim muassasalari va boşqa ilmiy-ta'lim taşkilotlari örtasidagi qöşma tadqiqotlarni kengaytiriş;

uçinçidan, ilmiy tadqiqot natijalarini xodimlarni tayyorlaş, qayta tayyorlaş va malakasini oşiriş dasturlariga tizimli ravişda joriy etiş;

törtinçidan, ilmiy işlanmalarni alohida viloyat, tuman, şahar va mahallalar miqyosida pilot loyihalar şaklida sinovdan ötkaziş;

beşinçidan, joriy etilayotgan har bir ilmiy yeçim uçun aniq va ölçab böladigan samaradorlik körsatkiçlarini belgilaş;

oltinçidan, ilmiy muassasalar va huquqni muhofaza qiluvçi organlar örtasida ilmiy hamda amaliy ma'lumotlar almaşinuvini ta'minlovçi raqamli platformalarni rivojlantiriş;

yettinçidan, yoş olimlar, doktorantlar, kursantlar va tinglovçilarni huquqni muhofaza qiluvçi faoliyatning real muammolariga bağişlangan ilmiy tadqiqotlarga keng jalb etiş.

Mazkur yönalişlar fan, ta'lim va amaliyot örtasidagi aloqalarni institutsional jihatdan mustahkamlaş, ilmiy natijalarning amaliy qiymatini oşiriş hamda huquqni muhofaza qiluvçi organlar faoliyatining ilmiy asoslanganligini kuçaytirişga xizmat qiladi.

Natijalar muhokamasi. Mazkur tizimni rivojlantirişning ijobiy misollaridan biri Kriminologiya tadqiqot institutining ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oşirişi va ta'lim hamda ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni kengaytirişidir. Jumladan, 2025-yilda Qonunçilik va huquqiy siyosat instituti bilan huquqbuzarliklarning oldini oliş, yoşlar radikallaşuviga qarşi kuraşiş va kiberjinoyatçilikning oldini oliş sohalarida hamkorlikni nazarda tutuvçi memorandum imzolangan.

Mazkur tajriba fan va amaliyot örtasidagi hamkorlikni aniq muammolar va amaliy natijalarga yönaltiriş imkoniyatini körsatadi.

Şu bilan birga, klassik **"fan – ta'lim – amaliyot"** modelini zamonaviy texnologiyalar bilan töldiriş maqsadga muvofiq. Natijada **"Fan – ta'lim – huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot – texnologiyalar"** modeli şakllanadi.

Uning mohiyati quyidagilardan iborat:

- fan muammoni aniqlaydi va dalillarga asoslangan yeçimni işlab çiqadi;
- ta'lim ilmiy bilimni kasbiy kompetensiyaga aylantiradi;
- huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot işlab çiqilgan mexanizmlarni sinovdan ötkazadi;
- texnologiyalar ularni keng joriy etiş, raqamlaştiriş, monitoring va natijalarni baholaşni ta'minlaydi;

- qayta aloqa mexanizmi amaliy ma'lumotlarni ilmiy va ta'lim tizimiga qaytaradi.

Bunday yondaşuv zamonaviy jinoyatçilikka, ayniqsa, texnologiyalardan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarga qarşi kuraşişda alohida ahamiyatga ega. Çunki texnologiyalar bugungi kunda bir vaqtning özida ham jinoyat sodir etiş vositasi, ham huquqni muhofaza qiluvçi faoliyatning muhim vositasi sifatida namoyon bölmoqda.

Masalan, kiberjinoyatçilik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar nazariy xulosalarni işlab çiqiş bilan çeklanmasligi kerak. Ularning natijalari mutaxassislarni tayyorlaş jarayoniga kiritilişi, keyinçalik huquqni muhofaza qiluvçi organlar faoliyatida sinovdan ötkazilişi va samaradorligi tasdiqlangan taqdirda jinoyatlarni tahlil qiliş, oldini oliş va tergov qilişga möljallangan raqamli tizimlarga joriy etilişi lozim.

Xulosa. Şunday qilib, Özbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvçi tizimning zamonaviy rivojlanişi fan, ta'lim va amaliyot örtasidagi aloqalarni alohida va epizodik hamkorlik şakllaridan **yagona, uzluksiz va natijaga yönaltirilgan ilmiy-ta'limiy-amaliy tizimga** aylantirişni talab etmoqda.

Fan nafaqat jinoyatçilikni örganişi, balki huquqni muhofaza qiluvçi amaliyotning aniq muammolari uçun ilmiy asoslangan yeçimlarni taklif qilişi lozim. Ta'lim nafaqat mavjud bilimlarni yetkazişi, balki ilmiy işlanmalarni real faoliyatda qöllaşga qodir bölgan mutaxassislarni şakllantirişi kerak. Huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot esa, öz navbatida, yangi ilmiy muammolarni şakllantirişi, işlab çiqilgan yeçimlarni amaliyotda sinovdan ötkazişi va ularning samaradorligini baholaşi zarur.

Kriminologiya tadqiqot institutining taşkil etilişi, Içki işlar vazirligi Akademiyasi, Huquqni muhofaza qiliş akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti hamda boşqa ilmiy-ta'lim muassasalarining rivojlanişi fan, ta'lim va huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot integratsiyasi uçun muhim institutsional imkoniyatlarni yaratmoqda.

Mazkur şaroitda **"Fan – ta'lim – huquqni muhofaza qiluvçi amaliyot – texnologiyalar"** modeli istiqbolli yondaşuv sifatida namoyon böladi. Uning asosini

uzluksiz bilim almaşinuvi, ilmiy tadqiqot natijalarini ta'limga joriy etiş, kadrlarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantiriş, ilmiy işlanmalarni real şaroitda sinovdan ötkaziş, texnologik qöllab-quvvatlaş va natijalarni obyektiv baholaş taşkil etadi.

Taklif etilayotgan modelning asosiy tamoyilini quyidagiça ifodalaş mumkin:

"Ilmiy muammo ta'limiy vazifaga, ta'lim natijasi kasbiy könikmaga, kasbiy könikma esa jamoat xavfsizligini ta'minlaşning amaliy mexanizmiga aylanişi lozim."

Aynan mana şunday uzviy boğliqlik **"huquqni muhofaza qiluvçi faoliyat haqidagi fan"dan "huquqni muhofaza qiluvçi faoliyat uçun fan"ga**, formal hamkorlikdan esa **dalillarga asoslangan, innovatsion va natijador huquqni muhofaza qiluvçi amaliyotga** ötişni ta'minlaşi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni "2030-yilgaça fanni rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida".
2. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni "Özbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida".
3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarori "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot işlarini taşkil etiş çora-tadbirlari töğrisida".
4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni "Özbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga möljallangan innovatsion rivojlaniş strategiyasini tasdiqlaş töğrisida".